



“OILA VA GENDER” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

OILA, XOTIN-QIZLAR VA IJTIMOIY HAYOT

elektron ilmiy jurnal

1/2025

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan.
“Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot” jurnali “Ijtimoiy boshqaruv” jurnalining vorisidir.

Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga oid barcha ijtimoiy masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.

ISSN 9874-4126

TOSHKENT

TAHRIR HAY'ATI RAISI:

EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna (Bosh muharrir) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

NARBAYEVA Tanzila Kamalovna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*
MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna (Bosh muharrir o'rinbosari) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*
ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
BEGIMQULOV Uzoqboy Shoimqulovich – *pedagogika fanlari doktori, professor.*
FARFIYEV Bahromjon Atxamdjanovich – *sotsiologiya fanlari doktori, dotsent.*
ISHQUVATOV Valiql Turdiyevich – *tarix fanlari doktori, professor.*
KARAMYAN Marietta Xachaturovna – *psixologiya fanlari doktori, professor.*
MUSLIMOV Narzulla Alixanovich – *pedagogika fanlari doktori, professor.*
NURMATOVA Mukarram Axmedovna – *falsafa fanlari doktori, professor.*
NARMATOV Nuriddin Soatmuradovich – *yuridik fanlari doktori, professor.*
RAHMANQULOVA Nilufar Xodji-Akbarovna – *yuridik fanlari doktori, dotsent.*
SAYDIVALIYEVA Xurshida Xodjiakbarovna – *yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*
ATAMURATOV Rasuljon Kadirjonovich – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*
SODIQOVA Shohida Marhobayevna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*
UMIRZAKOV Baxodir Xamidovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
IBRAGIMOV Lutfullo Ziyodullayevich – *geografiya fanlari doktori, dotsent.*
JABBAROV Ulug'bek Abduraxmanovich – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*
HOJIYEV Rasulbek Boynazar o'g'li – *falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Эгамбердиева Нодира Мелибаевна (Главный редактор) – *доктор педагогических наук, профессор.*

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Нарбаева Танзила Камаловна – *доктор социологических наук, профессор.*
Мусурманова Айниса Мусурмановна (Заместитель главного редактора) – *доктор педагогических наук, профессор.*
Абдураманов Хамид Худайбергенович – *доктор экономических наук, профессор.*
Бегимкулов Узокбой Шоимкулович – *доктор педагогических наук, профессор.*
Фарфиев Бахромжон Аткамджанович – *доктор социологических наук, доцент.*
Ишкuvatov Валикул Турдиевич – *доктор исторических наук, профессор.*
Карамян Мариэтта Хачатуровна – *доктор психологических наук, профессор.*
Муслимов Нарзулла Алиханович – *доктор педагогических наук, профессор.*
Нурматова Мукаррам Ахмедовна – *доктор философских наук, профессор.*
Нарматов Нуриддин Соатмурадович – *доктор юридических наук, профессор.*
Рахманкулова Нилуфар Ходжи-Акбаровна – *доктор юридических наук, доцент.*
Сайдивалиева Хуршида Ходжакабаровна – *доктор философии юридических наук (PhD).*
Атамуратов Расулжон Кадиржонович – *доктор философии педагогических наук (PhD).*
Содикова Шохид Мархобаевна – *доктор социологических наук, профессор.*
Умирзаков Баходир Хамидович – *доктор экономических наук, профессор.*
Ибрагимов Лутфулло Зиёдуллаевич – *доктор географических наук, доцент.*
Жаббаров Улугбек Абдурахманович – *доктор философии педагогических наук (PhD).*
Ходжиев Расулбек Бойназар оглы – *доктор философии (PhD) по философским наукам.*

THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:

Egamberdiyeva Nodira Melibayevna (Editor-in-Chief) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:

Narbayeva Tanzila Kamalovna – *Doctor of Sociological sciences, Professor.*
Musurmanova Aynisa Musurmanovna (Deputy Editor-in-Chief) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*
Abduramanov Khamid Khudaybergenovich – *Doctor of Economic Sciences, Professor.*
Begimkulov Uzokhboy Shoimkhulovich – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*
Farfiyev Bakhromjon Atkhamdjanovich – *Doctor of Sociological Sciences, Associate Professor.*
Ishkuvatov Valikhul Turdiyevich – *Doctor of Historical Sciences, Professor.*
Karamyan Marietta Khachaturovna – *Doctor of Psychological Sciences, Professor.*
Muslimov Narzulla Alikhanovich – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*
Nurmatova Mukharram Akhmedovna – *Doctor of Philosophical Sciences, Professor.*
Narmatov Nuriddin Soatmuradovich – *Doctor of Law Sciences, Professor.*
Rakhmankulova Nilufar Khodji-Akbarovna – *Doctor of Law Sciences, Assistant Professor.*
Saydivaliyeva Xurshida Khodjiakbarovna – *Doctor of Philosophy in Law (PhD).*
Atamuratov Rasuljon Kadirjonovich – *Doctor of Philosophy in Pedagogy (PhD).*
Sodikova Shokhida Markhobayevna – *Doctor of Sociological Sciences, Professor.*
Umirzakov Bakhodir Khamidovich – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Ibragimov Lutfullo Ziyodullayevich – *Doctor of Geographical Sciences, Assistant Professor.*
Djabbarov Ulughbek Abdurakhmanovich – *Doctor of Philosophy in Pedagogy (PhD).*
Khodjiev Rasulbek Boynazar ogly – *Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical Sciences.*

SOTSILOGIYA

Usmonova R.M. O‘zbekistonda xotin-qizlar norasmiy bandligini kamaytirishning iqtisodiy va huquqiy jihatlarining sotsiologik tahlili	4
--	---

JAMIYAT VA OILA

Axunov M.M. Aholi migratsiyasi genezisi va uning nazariy-metodologik asoslari.....	17
Yulchiyeva D. Oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashga qaratilgan ijtimoiy-pedagogik faoliyat mohiyati	26
Davlatova H.U. Yoshlar orasida intellektual migratsiya ko‘lamini qisqartirish va tartiblash mexanizmlarini takomillashtirish.....	36

IJTIMOIIY PEDAGOGIKA

Matkarimov A.M. Oilada ta’lim muhitini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik jihatlari	46
Ummatkulova N. Oila va maktab hamkorligida o‘smirlarning aqliy rivojlanishini takomillashtirish.....	53
Qahhorova F.Y. Ijtimoiy pedagogikada ishonirish metodlari	60
Rustamova N.Y. Oilada kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqot ishlari metodikasi mazmunini tahlil qilish.....	67
Egamberdiyeva G.B. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari direktorlarining boshqaruv kompetentligini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni.....	79

IJTIMOIIY PSIXOLOGIYA

Arzikulov D.N. Mutaxassislar shaxsiy-kasbiy sifatlarini shakllantirishning axloqiy-psixologik omillari.....	89
Shamsiyev O‘.B. Bolalar chapaqayligi xususida	94
Абдуганиева Д.А. Влияние семейного воспитания на формирование эмоционального состояния личности	100
Xudoyorova M.X. Ta’lim psixologiyasining talabalar o‘zlashtirishidagi ahamiyati	109
Ashurova A.N. O‘smirlik davrida o‘z-o‘zini anglashni rivojlantirishning psixologik omillari	119
Nazarova M.Y. Xotin-qizlarga nisbatan kiberzo‘ravnlik: sabab, oqibat va himoya mexanizmlari.....	127

Ashurova Azizabonu Nodir qizi,
O'zbekiston Milliy universitetining
"Psixologiya" mutaxassisligi
1-bosqich magistranti



O'SMIRLIK DAVRIDA O'Z-O'ZINI ANGLASHNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

Annotatsiya: *O'smirlilik – shaxsiyatning shakllanishi va o'z kimligini aniqlash jarayonining muhim bosqichi bo'lib, bu davrda o'z-o'zini anglashni shakllantirish uchun bir qator psixologik omillar faol rol o'ynaydi. Maqolada o'z-o'zini anglashning rivojlanishida ichki va tashqi ziddiyatlar, emotsional rivojlanish, ijtimoiy ta'sirlar va tengdoshlar ta'sirining ahamiyati ko'rib chiqiladi. Mazkur maqolada o'smirlarning psixologik rivojlanishidagi o'z-o'zini anglashning muhimligini va bu jarayonning psixologik, ijtimoiy va shaxsiy integratsiyani kuchaytirishga xizmat qilishi haqida batafsil yoritiladi.*

Аннотация: *Подростковый возраст – важный этап в процессе формирования личности и самоидентификации, в течение которого ряд психологических факторов играет активную роль в формировании самосознания. В статье рассматривается значение внутренних и внешних конфликтов, эмоционального развития, социальных влияний и влияния сверстников в развитии самосознания. В данной статье подробно описано значение самосознания в психологическом развитии подростков и то, как этот процесс служит усилению психологической, социальной и личностной интеграции.*

Abstract: *Adolescence is an important stage in the process of personality formation and self-identification, during which a number of psychological factors play an active role in the formation of self-awareness. The article examines the importance of internal and external conflicts, emotional development, social influences, and peer influence in the development of self-awareness. This article describes in detail the importance of self-awareness in the psychological development of adolescents and how this process serves to strengthen psychological, social and personal integration.*

Tayanch soʻzlar: *inqiroz davri, individual xususiyatlar, psixosotsial rivojlanish, axloqiy rivojlanish, rollar, ijtimoiy guruhlar, ehtiyoj, qiziqish, konfliktlar.*

Ключевые слова: *кризисный период, индивидуальные особенности, психосоциальное развитие, нравственное развитие, роли, социальные группы, потребности, интересы, конфликты.*

Keywords: *crisis period, individual characteristics, psychosocial development, moral development, roles, social groups, need, interest, conflicts.*

Respublikamizda soʻnggi yillarda yoshlarning taʼlim-tarbiyasi sifatini oshirish, oʻz-oʻzini rivojlantirish hamda anglashga qaratilgan islohotlarning ustuvor yoʻnalishlari belgilanib, zarur huquqiy-meʼyoriy asoslari yaratildi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi “Yoshlarni maʼnaviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga taʼlim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga koʻtarish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi¹ PQ-3907-son hamda 2020-yil 30-iyundagi “Oʻzbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi faoliyatini tashkil etish toʻgʻrisida”gi PQ-4768-son qarorlari, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi “Oʻzbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi 23-son qarori hamda faoliyatga oid boshqa meʼyoriy-huquqiy hujjatlari qabul qilingan.

Insoniyat paydo boʻlganidan to hozirgi kungacha insonni oʻzi haqidagi masalalar qiziqitirib kelgan. Inson aslida kim ekanligi, qanday paydo boʻlgani, qay tariqa yashagani, qanday tartibda yashashi kerakligi hamda boshqa mavzular borasida turli xil tortishuvlar va savollar paydo boʻlgan. Merriyam-Vebster lugʻatiga koʻra, oʻz-oʻzini anglash tushunchasi “oʻziga tegishli boʻlgan va undan kelib chiqadigan harakatlar yoki holatlarni anglash” deya taʼriflanadi.

Oʻz-oʻzini anglashning psixologik xususiyatlari ijtimoiy psixologiya fanida oʻz-oʻzini anglash va axloqiy oʻz-oʻzini anglash ijtimoiy-ruhiy hodisa, jarayon sifatida alohida ilmiy nuqtayi nazardan toʻliq oʻrganilmaganligi tufayli uni tahlil qilish axloq, milliy xarakter, milliy maʼnaviyat va qadriyat kategoriyalari bilan bevosita bogʻliq ravishda amalga oshirilmoqda. Ushbu kategoriyalarni oʻziga xos tarzda yoritish psixologiya fanining asosiy tushunchasi hisoblanmish shaxsni yaqqol anglash, uning guruh (jamoada) dagi roli, shaxslararo munosabatdagi ahamiyatini oʻrganish imkoniyatini yaratadi.

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi “Yoshlarni maʼnaviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga taʼlim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga koʻtarish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-3907-son qarori

O‘smirlik davri – insonning bolalikdan yoshlikka o‘tuvchi va, o‘z navbatida, boshqa davrlardan o‘zining nisbatan keskinroq, murakkabroq kechishi bilan farqlanib turuvchi davrdir. Bu davr taxminan bolalarning 5–8-sinflarda o‘qish paytlariga to‘g‘ri keladi va 11-12 yoshdan 14-15 yoshgacha bo‘lgan davr oralig‘ida kechadi. Ayrim bolalarda bu davr 1–2 yil ertaroq yoki kechroq kuzatilishi ham mumkin. O‘smirlik davri ayrim maxsus psixologik adabiyotlarda “o‘tish davri”, “og‘ir davr”, “inqiroz davri” kabi nomlar bilan ham ataladi. Bu davrning “og‘irligi”, “keskinligi”, “murakkabligi” tufayli u og‘ir va murakkab davr ekanligi, bu davrda rivojlanishning barcha jihatlarini: jismoniy, aqliy, axloqiy, ijtimoiy va shu kabilarning mazmun mohiyati ham o‘zgarishi reallik hisoblanadi.

Bu davrda o‘smir hayotida, uning ruhiyati, organizmining fiziologik holatlarida, uning ijtimoiy holatida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Aksariyat holatlarda ularda bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan turli xil an‘analar kuzatiladi. Bu davrga kelib, bola endi “bola” emas va shu bilan birga hali “katta” ham emas. Uning o‘z-o‘ziga va atrofdagilarga nisbatan bo‘lgan munosabatlari butunlay boshqacha xarakter kasb etib boradi. Uning qiziqishlari tizimi, ijtimoiy yo‘nalganligi qaytadan shakllanib, o‘z-o‘zini anglashi, baholashi, qadriyatlarini o‘zgaradi. Uning uchun o‘z “men”i va shu “men”ning ahamiyati ortadi.

Psixologiya fanida o‘smirlik davrining psixologik xususiyatlari, amaliy va tatbiqiy tomonlari muayyan darajada o‘rganilib, bu borada izlanishlar davom ettirilmoqda. Jumladan, L.S.Vigotskiy, L.S.Rubinshteyn, A.N.Leontev, L.R.Bojovich, E.G‘oziyev, M.Davletshin, N.Shodiyev va boshqalar tomonidan qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. O‘smirlik davriga xos xususiyatlarning u yoki bu qirralari L.I.Bojovich, L.A. Petrovskaya, A.I.Donsov, A.A.Bodalev, M.Ratter, M.M.Ribalkova, G.A.Kovalev, M.G.Davletshin, E.G‘.G‘oziyev, A.I.Ostrovskiy, G.K.To‘laganova, Z.Kamaletdinova, N.G.Kamilova, G‘.B.Shoumarov, Z.T.Nishonova kabi olimlarning tadqiqotlarida muayyan darajada ochib berilgan.

XX va XXI asr psixologiya fanida ushbu masalaning ijtimoiy-psixologik tabiatini tushuntirishda ikki xil qarash va yondashuv vujudga kelgan bo‘lib, ular o‘zaro bir-biridan keskin darajada tavofutlanib turadi. Birinchi yondashuv talqinicha, o‘z-o‘zini anglash – o‘z yo‘nalishini o‘zgartirgan ongning aynan o‘zi. Mazkur talqin rus psixologiyasida keng tarqalgan bo‘lib, L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, V.V.Stolin va ularning shogirdlari tomonidan tadqiq qilib kelinadi. Birinchi yondashuvning namoyondalari talqinida “o‘z-o‘zini anglash” L.S. Vigotskiyning shaxsiy fikricha, o‘z-o‘zini anglash turli xil ma‘nolar orasida birlik (umumiylik)ni vujudga keltiruvchi jarayon sifatida va o‘zlashtirilgan ong tariqasida namoyon bo‘ladi.

Psixologiya fanida o‘smirlik davrining psixologik xususiyatlari, amaliy va tatbiqiy tomonlari muayyan darajada o‘rganilib, bu borada izlanishlar davom ettirilmoqda.

Ontogenezda o‘z-o‘zini anglash – insonning o‘zligini, o‘z qobiliyatlarini, his-tuyg‘ularini va ijtimoiy rolini anglash jarayoni. Bu jarayon, asosan, o‘shish va rivojlanishning turli bosqichlarida, xususan, bolalik va o‘smirlik davrlarida muhim ahamiyatga ega.

A.N.Leontev talqiniga ko‘ra, individual ongdagi mohiyat bilan mazmun o‘rtasidagi ziddiyat o‘z-o‘zini anglashning sababchisidir. V.V.Stolinning ta’kidlashicha, o‘z-o‘zini anglashning asosida “Men”likning mazmuni va mohiyati o‘rtasidagi ziddiyat yotadi. S.L.Rubinshteyn “Insonning o‘z-o‘zini anglash jarayonidagi subyektligi bilan amalga oshirishga mo‘ljallangan aloqasining shakllanishi va oqibati yuzaga keladigan yangi holat undagi oldingi ichki ziddiyatlardan tamoman forig‘ ekanligini bildiradi”.

S.L.Rubinshteyn va K.A.Abulxanova-Slavskayalar o‘z-o‘zini anglashning ichki mohiyati ikki negiz (asos) bilan tavsiflanishini ta’kidlaydilar. Negizning birinchisi – insonning atrof-muhit va shaxslararo munosabatlarining mazmuni. Uning ikkinchisi esa, ana shu munosabatlar to‘g‘risida uning fikr yuritish imkoniyati ifodasidir. Shulardan birinchisi, ijtimoiy, ya’ni obyektiv xususiyatga ega bo‘lsa, uning ikkinchisi subyektiv, binobarin, insonning psixofiziologik va ruhiy xususiyatlariga bog‘liqdir. Har ikkala asosning o‘zaro bir-biri bilan mos kelishi yoki mos kelmasligi o‘zlik, “Men”lik to‘g‘risidagi aniq, haqqoniy tasavvurlarni vujudga keltiradi. Mualliflarning mulohazasiga ko‘ra, ijtimoiylik insonning ongi va ruhiyatiga kirib borib, ongning, o‘zini-o‘zi anglashning hamda idora qilishning manbayi bo‘lib qoladi.

Ontogenezda o‘z-o‘zini anglash – insonning o‘zligini, o‘z qobiliyatlarini, his-tuyg‘ularini va ijtimoiy rolini anglash jarayoni. Bu jarayon, asosan, o‘shish va rivojlanishning turli bosqichlarida, xususan, bolalik va o‘smirlik davrlarida muhim ahamiyatga ega:

- bolalik davrida bolalar o‘zlarini va atrofidagi dunyoni anglashni boshlaydilar. Ular o‘zlarini boshqalardan ajratish, o‘z ismlari, his-tuyg‘ulari va xatti-harakatlarini tushunishni o‘rganadilar;

- o‘smirlik davrida o‘zligini shakllantirishda ijtimoiy rollarni o‘rganadilar. Ular o‘z qiziqishlari, qobiliyatlari va maqsadlari bilan tanishadilar;

- o‘smirlar o‘z qobiliyatlari va kamchiliklarini baholashni o‘rganadilar. Bu jarayonda o‘z-o‘zini tanqid qilish va o‘ziga ishonchni rivojlantirish muhimdir;

- o‘smirlar o‘z his-tuyg‘ularini anglash va boshqarishni o‘rganadilar. Bu emotsional intellektni rivojlantirishga yordam beradi.

O‘smirlik davrida o‘z-o‘zini anglashni rivojlantirish psixologik jihatdan juda muhim jarayon bo‘lib, bu davrda shaxs o‘zining kimligini anglash, o‘zini boshqa odamlar bilan solishtirib tushunish hamda o‘ziga xos xususiyatlarni shakllantirishda yuz beradigan asosiy jarayonlardir. O‘smirlik davrida shaxs o‘zining kimligini izlaydi. O‘smirlik davrida o‘z-o‘zini anglashni rivojlantirish psixologik jihatdan murakkab

jarayon bo‘lib, bu borada turli psixolog olimlar o‘z ilmiy tadqiqotlari va nazariyalari orqali muhim tushunchalar yaratgan.

Erik Erikson bu sohada eng mashhur va ta‘sirli olimlardan biridir. Uning “identitet va rolni qo‘llab-quvvatlash” nazariyasi o‘smirlik davrining muhim bosqichi sifatida qaraladi. Erikson o‘zining “psixosotsial rivojlanish” nazariyasida o‘smirlik davrini identitetni shakllantirish va rolni izlash bosqichi deb belgilaydi. Bu davrda o‘smirlar o‘z kimligini, qadriyatlari va hayotiy maqsadlarini izlashadi. Ularning o‘z-o‘zini anglash jarayoni boshqa odamlar va ijtimoiy guruhlar bilan aloqada, shuningdek, ichki ziddiyatda amalga oshadi. Bu jarayon muvaffaqiyatli yakunlanmasa, o‘smirlar identitet inqirozini boshdan kechirishlari mumkin.

Jean Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasi o‘smirlik davrida aqliy va mantiqiy tafakkurning rivojlanishini o‘rganadi. Piagetning abstrakt fikrlash va mantiqiy muammolarni hal qilish bo‘yicha nazariyasi o‘smirlarning o‘z-o‘zini anglash jarayonini tushunishga yordam beradi. O‘smirlar bu davrda yuqori darajadagi kognitiv qobiliyatlarni rivojlantiradilar, masalan, abstrakt fikrlash va konseptual tushunchalar, bu esa o‘z kimligini va dunyoda o‘rnini anglashga yordam beradi.

Kohlbergning axloqiy rivojlanish nazariyasi o‘smirlik davrida o‘z-o‘zini anglashga ta‘sir qiluvchi muhim omildir. Kohlberg o‘smirlarning axloqiy qarorlar qabul qilishi qanday rivojlanishini o‘rgangan. U o‘zining axloqiy rivojlanish bosqichlari nazariyasida o‘smirlarda axloqiy qadriyatlar va prinsiplar nimaga asoslanishini tushuntirgan. Ularning o‘zini anglash jarayonida axloqiy va ijtimoiy masalalar bilan bog‘liq bo‘lgan qarorlar o‘z kimligini tushunishga ta‘sir qiladi.

N.G.Serkovnikova ta‘kidlashicha, axloqiy o‘z-o‘zini o‘zi anglashning ajralmas qismi sifatida axloqiy xatti-harakatning subyekti bo‘lib, u voqelikni aks ettiradi. U nafaqat ijtimoiy dunyoning axloqiy jihatlarini anglashga, balki undagi shaxsning o‘zini anglashga ham qaratilgan. Agar biror kishi o‘zining ichki muammolarini anglay olmasa, ularni yaxshilik va yomonlik haqidagi o‘z tasavvurlari bilan bog‘lay olmasa, inson xulq-atvori, shuningdek, o‘zaro ta‘sirlarning birortasi ham axloqiy o‘lchovga ega bo‘la olmaydi. Axloqiy qadriyatlar, me‘yorlar, ideallar, tamoyillar doimiy ravishda o‘z “Men”i tomonidan tekshiriladi va taqqoslanib, shaxsiy ma‘no kasb etadi va buning natijasida axloqiy “Men” yuzaga keladi. Axloqiy o‘z-o‘zini anglashning aniq mazmuni – shaxsning o‘zaro ta‘sirida axloqiy qadriyatlar, me‘yorlar, ideallar, axloq tamoyillariga rioya qilish nuqtayi nazaridan konkret “Men” tizimida o‘zining individual mavjudligini anglash hamda uning vazifasi – xatti-harakatlar, pozitsiyalar va kechinmalarni axloqiy o‘z-o‘zini baholash, shuningdek, o‘z xulq-

Kohlbergning axloqiy rivojlanish nazariyasi o‘smirlik davrida o‘z-o‘zini anglashga ta‘sir qiluvchi muhim omildir. Kohlberg o‘smirlarning axloqiy qarorlar qabul qilishi qanday rivojlanishini o‘rgangan. U o‘zining axloqiy rivojlanish bosqichlari nazariyasida o‘smirlarda axloqiy qadriyatlar va prinsiplar nimaga asoslanishini tushuntirgan.

Lev Vigotsky ijtimoiy va madaniy rivojlanish nazariyasini ishlab chiqqan. U ijtimoiy aloqalar va muloqotning rivojlanishdagi o'rnini ta'kidlagan. Vygotskyning "hududiy rivojlanish" (Zone of Proximal Development – ZPD) konsepsiyasi o'smirlarning o'z-o'zini anglashiga yordam beradigan muhim jarayonlarni tasvirlaydi.

atvorini boshqarish. Inson hayotidagi axloqiy o'z-o'zini anglash shaxsning ichki dunyosining yaxlitligini saqlashga yordam berib, shunday axloqiy asos yaratadiki, tegishli hayotiy vaziyatlarda shaxsning xulq-atvorida yuqori axloqiy mayl va istaklarni boshqarishga ko'maklashadi.

I.G.Bonkning fikriga ko'ra, axloqiy o'z-o'zini anglash subyekt ongining, uning axloqiy munosabatlarining eng muhim tarkibiy qismidir. Unga axloqning mohiyati haqidagi bilimlar ham, umuminsoniy xulq-atvor me'yorlari va qoidalari ham, binobarin, bu qoida va me'yorlarga insonning munosabatlari tizimi ham kiradi. Bu jihatdan muallif o'rganilayotgan hodisa tuzilishidagi ikkita asosiy blokni ajratib ko'rsatadi:

– obyektiv yoki tavsiflovchi – shaxsning axloqiy-gnostik faoliyatiga asoslangan bo'lib, axloqning mohiyatini tushunishga, xususan, axloqiy tasavvurlar, tushunchalar va hukmlar shaklida namoyon bo'luvchi tegishli bilimlarni shakllantirishga qaratilgan;

– subyektiv – axloqiy o'z-o'zini anglash tarkibiy komponentlarga tegishli shaklda namoyon bo'luvchi ijtimoiy me'yorlar va qoidalarga shaxs munosabatlarini shakllantirishga asoslangan.

Lev Vigotsky ijtimoiy va madaniy rivojlanish nazariyasini ishlab chiqqan. U ijtimoiy aloqalar va muloqotning rivojlanishdagi o'rnini ta'kidlagan. Vygotskyning "hududiy rivojlanish" (Zone of Proximal Development – ZPD) konsepsiyasi o'smirlarning o'z-o'zini anglashiga yordam beradigan muhim jarayonlarni tasvirlaydi. O'smirlar o'zining kimligi va imkoniyatlarini anglagan holda, tajriba va bilimlarni boshqa odamlar bilan bo'lishish orqali rivojlanadilar. Bu jarayonda guruhlar va tengdoshlar bilan muloqot muhim ahamiyatga ega.

Maslouning motivatsiya piramidasi nazariyasi o'smirlik davrida o'z-o'zini anglashni tushunishda qo'llaniladi. Maslou o'zining "o'zini amalga oshirish" (self-actualization) g'oyasini ishlab chiqqan. U o'smirlarning o'z imkoniyatlarini eng yuqori darajada amalga oshirishga intilishini ta'kidlagan. O'z-o'zini anglash, o'smirlar uchun hayotiy maqsadlar va shaxsiy rivojlanishni amalga oshirish orqali amalga oshadi. Maslouning nazariyasida o'zini anglash hamma boshqa ehtiyojlar, jumladan, ijtimoiy xavfsizlik va o'z-o'zini hurmat qilish ehtiyojlari orqali rivojlanadi.

Mead o'smirlik davrida o'z-o'zini anglashni ijtimoiy muloqot orqali shakllanishini ta'kidlagan. Uning "o'zini anglash" konsepsiyasi odamning o'zini boshqalar orqali anglashini ko'rsatadi. Meadning fikricha, o'smirlarning o'z-o'zini anglash jarayoni ijtimoiy muloqot va rollarni sinovdan o'tkazish orqali shakllanadi. Bu jarayon orqali o'smir o'zini boshqalar nazarida qanday ko'rishini tushunadi va o'z kimligini aniqlaydi.

Z.Freydning psixoseksual rivojlanish nazariyasiga ko'ra, o'smirlik davrida o'smirlar jinsiy rivojlanish jarayonini boshdan kechirishadi. Freyd o'z-o'zini anglashni id, ego va super-ego (insonning ichki ziddiyatlari) o'rtasidagi muvozanatni yaratish orqali tushuntirgan. O'smirlik davri ichki kurashlarning kiritilishi va o'z-o'zini anglashning rivojlanishi uchun muhim davrdir.

G'oziyev o'zbek psixologiyasida o'smirlar psixologiyasini o'rganishda shaxsiyat rivojlanishi, ijtimoiy integratsiya va o'z-o'zini anglash jarayonlariga alohida e'tibor qaratgan. Uning ilmiy ishlari o'smirlarning o'zini tasdiqlash, identitetni shakllantirish va psixologik rivojlanishda yuzaga keladigan turli omillarni chuqur tahlil qilishga qaratilgan. G'oziyevning ilmiy qarashlari o'smirlarning psixologik rivojlanishini va ijtimoiy aloqalar orqali ularning shaxsiyatini shakllantirish jarayonlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

O'smirlik davrida odam o'zini boshqalar bilan solishtirib, tasdiqlashga intiladi. Bu jarayon o'smirning o'zini qadrlashini, o'ziga nisbatan munosabatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Ularning o'z-o'zini tasdiqlash va muvaffaqiyatni his qilishga intilishi shaxsiy yuksalish va o'sishning asosiy omilidir. O'smirlar ijtimoiy ta'sirga juda sezgir bo'ladi. Ular do'stlar, oila a'zolari va boshqa ijtimoiy guruhlarining fikrlariga juda e'tibor berishadi. Ijtimoiy guruhlar va tengdoshlar bilan aloqalar o'smirlarning o'z-o'zini anglashini va o'z qadriyatlarini aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Jismoniy o'zgarishlar, ayniqsa, jinsiy rivojlanish o'smirning o'zini anglashiga ta'sir qiladi. O'zgaruvchan tana va ko'rinishlarga bo'lgan e'tibor, ular bilan bog'liq noqulayliklar o'z-o'zini anglashni shakllantiruvchi omil hisoblanadi. O'smirlar bu o'zgarishlarga qanday munosabatda bo'lishni o'rganishadi, bu esa o'z-o'zini anglashni rivojlantiradi.

O'smirlik davrida o'z-o'zini anglash ko'pincha ziddiyatlar bilan bog'liq bo'ladi. O'smirlar ota-onalar, o'qituvchilar va boshqa avtoritet (authority) shaxslar bilan ziddiyatlarga kirishishadi, bu esa ularning o'zlarining ijtimoiy rollarini va o'z-o'zini tushunish jarayonini chuqurlashtiradi. O'zgaruvchan ijtimoiy vaziyatlar o'smirlarning o'ziga bo'lgan munosabatlarini qayta ko'rib chiqishlariga olib keladi. O'smirlikda o'z-o'zini anglash jarayoni ko'pincha ichki va tashqi ziddiyatlar orqali amalga oshadi. O'smirlar ko'pincha o'zlarini va dunyoni yangi nuqtayi nazardan ko'ra boshlaydilar, bu esa o'z-o'zini anglashning qiyinchiliklari va ziddiyatlarini yuzaga keltiradi. O'smirlar ichki ziddiyatlar (masalan, o'z hayotidagi qarorlarni qabul qilishda, hayotiy yo'llarni tanlashda) ni va tashqi ziddiyatlar (masalan, oilaviy, ijtimoiy va tengdoshlar bilan

O'smirlik davrida odam o'zini boshqalar bilan solishtirib, tasdiqlashga intiladi. Bu jarayon o'smirning o'zini qadrlashini, o'ziga nisbatan munosabatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Ularning o'z-o'zini tasdiqlash va muvaffaqiyatni his qilishga intilishi shaxsiy yuksalish va o'sishning asosiy omilidir.

munosabatlarda yuzaga keladigan muammolar)ni boshdan kechiradilar. Bu jarayonlar o'z-o'zini anglashning rivojlanishiga yordam beradi.

O'smirlar hissiy jihatdan juda o'zgaruvchan bo'ladi. Boshqa odamlar bilan bo'ladigan munosabatlar va o'z-o'zini tushunish shu emotsional tajribalardan kuchli ta'sirlanadi. Emotsiyalarni boshqarish, o'z his-tuyg'ularini anglash va boshqarish o'smirlarning o'zini anglash jarayonining muhim qismi hisoblanadi. O'smirlik davrida shaxslar ko'pincha turli tanlovlarni qilishadi: kasb, maqsadlar, munosabatlar va boshqa hayotiy qarorlar. Ushbu jarayonlarda o'smirning o'z xohish-irodalari va qarashlari asosiy rol o'ynaydi, bu esa o'z-o'zini anglashni yanada rivojlantiradi.

O'smirlik davrida oilaviy munosabatlar va madaniy kontekst ham o'z-o'zini anglashni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Oila a'zolarining qo'llab-quvvatlashi, qadriyatlar va ijtimoiy normativlar o'smirning o'zini qanday anglashi va qanday hayotiy yo'lni tanlashiga ta'sir qiladi. Shu bilan birga, o'smirlik davri har bir inson uchun individual va noyob bo'ladi, va o'z-o'zini anglashni rivojlantirishga ta'sir qiluvchi omillar shaxsning shaxsiy tajribalari, o'qish, do'stlar va jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlarga bog'liq holda o'zgarishi mumkin. Psixologik tadqiqotlar bu jarayonlarni chuqur tahlil qilib, o'smirlarning o'z-o'zini anglash jarayonini shakllantiruvchi asosiy faktorlarni aniqlaydi. O'smirlik davri o'z-o'zini anglashning rivojlanishi uchun muhim va murakkab davr bo'lib, bu davrda yuzaga keladigan ziddiyatlar va tajribalar o'z-o'zini anglash va shaxsiyatni shakllantirishda katta rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Церковникова Н.Г. Теоретические аспекты изучения нравственного самосознания в психологии. // Личностно-ориентированное профессиональное образование: Материалы Всерос. науч.-практ. конф. – Екатеринбург, 2003.*
2. *Петрова С.М. К проблеме структурных компонентов самосознания личности: методический аспект. // Вестник Псковского государственного университета. Серия: Социально-гуманитарные науки. 2007.*
3. *Е.Г'озиев Умумий psixologiya darslik. – Toshkent, 2010.*
4. *Лаптев И.Г. Формирование студенческого самосознания в процессе духовно-нравственного воспитания. // Наука и мир, 2013.*
5. *Виноградова Е.Л. Нравственное развитие современных подростков как психолого педагогическая проблема. // Сборник трудов аспирантов и магистрантов. Социально-гуманитарные науки. Нижегород. гос. архитектур.-строит. ун-т. Нижний Новгород, 2010.*
6. *www.ziyounet.uz.*

“OILA VA GENDER” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ «СЕМЬЯ И ГЕНДЕР»
“FAMILY AND GENDER” RESEARCH INSTITUTE

**OILA, XOTIN-QIZLAR VA
IJTIMOIY HAYOT**
СЕМЬЯ, ЖЕНЩИНЫ И ОБЩЕСТВЕННАЯ ЖИЗНЬ
FAMILY, WOMEN AND SOCIAL LIFE

elektron ilmiy jurnal
электронный научный журнал
electronic scientific journal

1/2025

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli
“Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan.
“Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot” jurnali “Ijtimoiy boshqaruv” jurnalining vorisidir.

*Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga oid barcha ijtimoiy
masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni
tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.*

Журналу выдано «Свидетельство о государственной регистрации средств массовой информации»
№ 1190 Управлением печати и информации города Ташкент от 17 июня 2021 года.
Журнал «Семья, женщины и общественная жизнь» считается продолжение журнала «Социальное управление».

*Настоящий журнал – издание, специализирующееся на применении междисциплинарных,
фундаментальных научно-практических исследований и инновационных идей во всех социальных
вопросах, касающихся укрепления институтов махалли, семьи и гендерного равенства.*

The journal was issued «Certificate of state registration of mass media» No.1190 by the Press and
Information Department of Tashkent city dated June 17, 2021.
The journal «Family, women and social life» is a continuation of the journal «Social management».

*This journal is a publication specializing in the application of interdisciplinary, fundamental scientific
and practical researches and innovative ideas in all social issues related to strengthening the institutions
of makhalla, family and gender equality.*

MUASSIS:

“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti

JURNAL TAHRIRIYATI:

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**

Mas’ul kotib: **Mavlonov B.**

Muharrirlar: **Yunusov U., Sobirova E.,
Jabborov U., E.Sultonov**

Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**

Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**

Web dizayner: **Yakubov O.**

Jurnaldagi materiallardan foydalanilganda mualliflik huquqini e’tiborga olgan holda jurnalga havola berilishi shart.

Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 02.03.2024.

“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8

Nashriyot bosma tabog‘i 11,6.

100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,

M.Ismoilıy ko‘chasi 1-G uy.

“Pages Print” MЧЖ bosmaхонасіда chop etildi.

Toshkent, Olmazor tumani, Chimbой kўchasi, 8-uy.